UDK: 616.831-005+613.81

BOSH MIYA INSULTI RIVOJLANISHIGA ALKOGOL MAHSULOTLARI ISTEMOLINING TA'SIRI (ADABIYOTLAR SHARXI)

Matyokubov Murod Otajonovich, Bobojanov Umidjon Adilbekovich
Niyazmetov Matrasul Radjabovich
Urganch Davlat tibbiyot instituti

Received: 29.11.2025
Revised: 01.12.2025
Accepted: 02.12.2025

Kalit so'zlar: ishemik insult, gemorragik insult, alkogol, ateroskleroz, tomir endoteliysi, bosh miya, xavflar omillar.

Ключевые слова: ишемический инсульт, геморрагический инсульт, алкоголь, атеросклероз, эндотелий сосудов, головной мозг, факторы риска.

Keywords: ischemic stroke, hemorrhagic stroke, alcohol, atherosclerosis, vascular endothelium, brain, risk factors.

Annotatsiya. Ushbu maqolada alkogol mahsulotlari istemolining inson salomatligiga, ayniqsa bosh miya va uning qon tomir tizimiga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Ayniqsa, alkogol mahsulotlari bilan bosh miya insultlari o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Alkogol mahsulotlarini istemol qilish arterial bosimning ko'tarilishi va qonning ivuvchanligining ortishiga sabab bo'lib, bu omillar bosh miya insultiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, maqolada sog'lom turmush tarzini shakllantirish va alkogol mahsulotlari istemolini to'xtatish orqali insult profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar alkogol mahsulotlari istemolini kamaytirish yoki butunlay to'xtatish orqali jiddiy asoratlarning oldini olish mumkinligini tasdiqlaydi.

Аннотация. В данной статье проанализировано негативное влияние употребления алкогольной продукции на здоровье человека, особенно на головной мозг и его сосудистую систему. Особое внимание уделено взаимосвязи между употреблением алкоголя и развитием инсультов головного мозга, что раскрыто на основе научных источников. Показано, что употребление алкоголя приводит к повышению артериального давления и увеличению свертываемости крови, что может стать причиной развития инсульта. В статье также представлены рекомендации по профилактике инсульта путем формирования здорового образа жизни и отказа от употребления алкогольных напитков. Исследования по данной теме подтверждают, что снижение или полный отказ от употребления алкоголя позволяет предотвратить серьезные осложнения.

Abstract. This article analyzes the negative impact of alcohol consumption on human health, particularly on

the brain and its vascular system. Special attention is given to the relationship between alcohol intake and the development of brain strokes, supported by scientific literature. Alcohol consumption is shown to increase blood pressure and enhance blood coagulation, both of which may contribute to the onset of stroke. The article also provides recommendations for stroke prevention through adopting a healthy lifestyle and stopping alcohol consumption. Research on this topic confirms that reducing or completely eliminating alcohol intake can help prevent serious complications.

Bosh miya insultlari barcha neyrolojik kasalliklar orasida eng dolzarb va muammoli kasalliklardan biri bo'lib qolmoqda. U ko'pincha o'limga yoki jiddiy jismoniy nogironlikka olib kelishi barchaga ma`lum. Dunyo bo'ylab ko'plab mamlakatlar kasalliklar epidemiologik o'tish davrini boshdan kechirayotganligi sababli insultning tarqalish tendensiyalari keskin o'zgargan. [15]. Oxirgi yillarda insult holatlari va unga bog'liq bo`lgan o'limlar soni, ayniqsa, iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlarda ortib bormoqda [24,28].

Alkogol mahsulotlarini istemol qilish insult xavfiga qanday ta'sir qiladi? Bu savol olimlar va sog'liqni saqlash mutaxassislarini uzoq vaqtdan beri qiziqtirib keladi. Spirtli ichimliklarning yurak-qon tomir tizimiga bo'lgan ta'siri haqida turli fikrlar mavjud. Bir tarafdan, o'rtacha miqdordagi alkogol iste'moli miokard infarkti xavfini kamaytirishi mumkinligi ko'rsatilgan [11], ammo alkogol iste'moli va bosh miya insulti o'rtasidagi bog`liqlik aniq emas degan fikrlar mavjud. Boshqa tarafdan, ko`p miqdorda alkogol iste'moli insult xavfini oshirishi mumkinligi haqida dalillar bor [2].

Ushbu maqolada alkogol iste'molining turli darajalari va turlarini insult xavfiga qanday ta'sir qilishini, shuningdek, bu mavzudagi tadqiqotlarning metodologik xususiyatlarini o'rganamiz.

Alkogol mahsulotlarini istemol qilish bosh miya insultlarining turlariga ta'siri haqida turli fikrlar mavjuddir. Ko`p miqdorda alkogol mahsulotlarini istemol qilish ishemik insult xavfini oshirishi mumkinligi ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan [5]. Biroq, o'rtacha miqdorda alkogol iste'mol qilish bu xavfni kamaytirishi mumkinligi haqida ham dalillar mavjud [20,29]. Bu to`g`ridan – to`g`ri bog'liqlik sifatida tasvirlanadi, ya'ni alkogol iste'moli haddan oshmasa, ishemik insult xavfi kamayadi, ammo juda ko`p iste'mol qilish esa bu xavfni oshiradi.

Ko`p miqdorda spirtli ichimliklar iste'mol qilish gemorragik insult xavfini sezilarli darajada oshirishi mumkin [3,25]. Ayniqsa, haddan tashqari ko`p ichish parenximatoz va subaraxnoidal qon quyilishlar xavfini oshiradi [6].

Alkogol mahsulotlari har xil turlarining bosh miya insultlari rivojlanishiga ta’siri haqida ham turlicha fikrlar mavjuddir. Qizil vino turli fenolli birikmalarga boy bo’lib, ular antioksidant xususiyatlarga egadir. Bu birikmalar past zichlikdagi lipoprotein (PZL), xolesterinning oksidlanishini oldini oladi va aterosklerozning rivojlanishini sekinlashtiradi [16]. Shuningdek, qizil sharob polifenollari qon tomir silliq mushak hujayralarining sklerozlanishini to’xtatib, tomir devorlarining sog’lomligini saqlashga yordam beradi [7]. Copenhagen City Heart Study tadqiqotida vino iste’moli ishemik insult xavfini kamayishi bilan bog’liq ekanligi ko’rsatilgan, ammo pivo yoki spirtli ichimliklar bunday ta’sirga ega emasligi aniqlangan [27].

Pivo va spirtli ichimliklarning insult xavfiga bo’lgan ta’siri haqida dalillar ziddiyatlidir. Ayrim tadqiqotlar ularning ishemik insult xavfini kamaytirishi mumkinligini ko’rsatsa [13,17], boshqalari bunday bog’liqlikni topmagan [10,19]. Bu ichimliklarning tarkibidagi komponentlar va iste’mol tartibi yuqoridagi fikrlar qarama-qarshiligiga sabab bo`lgan bo’lishi mumkin.

Ko’plab tadqiqotchilar insonlarning alkogol iste’moli haqidagi ma’lumotlarini to`g`ridan – to`g`ri o’zidan so`rab - surishtirish orqali yig’ishadi. Ammo bu usulning ishonchliligi shubhali, chunki ular iste’mol miqdorini kamaytirib yoki ortiqcha ko`rsatishi mumkin [12]. Bundan tashqari, alkogoliklar ko’pincha haddan tashqari ko`p ichishlarini rad etadilar [21].

Alkogol iste’molini ob’ektiv baholash uchun esa biologik ko’rsatkichlardan foydalanish mumkin. Masalan, siydikdagi gamma-glutamil transferaza (GGT) darajasi oshishi alkogol iste’molining yuqoriligini ko’rsatadi [1]. Uglevodlar etishmovchiligi bilan bog’liq transferrin ham alkogol iste’molining ko’rsatkichi sifatida xizmat qiladi [8,30].

Alkogol mahsulotlarini istemol qilishning inson organizmiga ta`sir qilish механизмлари haqida ham turlicha fikrlar mavjuddir.

Alkogol mahsulotlarini istemol qilish qon bosimini oshirishi mumkin. Ko`p miqdordagi spirtli ichimliklar iste’moli gipertenziya xavfini oshiradi, bu esa insultning asosiy xavf omilidir [9,23].

Alkogol qon ivish tizimiga ta’sir qilib, trombotsitlarning funktsiyalarini o’zgartiradi. O’rtacha miqdorda alkogol iste’mol qilish qon ivishini pasaytirishi va fibrinolizni oshirishi mumkin va bu ishemik insult xavfini kamaytirishi mumkin [18]. Ammo ko`p miqdordagi alkogol iste’moli qon ivishini kuchaytirib, tromb hosil bo’lish xavfini oshiradi.

Qizil vino va ba’zi boshqa alkogolli ichimliklar tarkibidagi antioksidantlar oksidlovchilarning ta`sirinini kamaytirishi mumkin. Bu aterosklerozning rivojlanishini sekinlashtirishi va ishemik insult xavfini kamaytirishi mumkin [4].

Ammo insultlarning xavf omillariga faqat alkogol mahsulotlarini istemol qilish emas, balki ko`proq turmush tarzi va ijtimoiy omillar ta`sir qilgan bo`lishi mumkin. Ya`ni, vino iste’mol qiluvchilar ko’pincha sog’lom turmush tarziga ega bo’lishlari mumkin, masalan, sog’lom dietaga amal qilishlari va jismoniy faol bo’lishlari

mumkin [26]. Bu omillar alkogol iste'moli va insult xavfi o'rtasidagi bog'liqlikni adashtirish extimolligi kattadir.

Olib borilgan ko'plab tadqiqotlar asosan kuzatuv xarakteriga ega bo'lib, ularda asosiy sababni aniqlash juda qiyin. Keyingi tadqiqotlar va kogort tadqiqotlari ma'lum vaqt davomida ishtirokchilarni kuzatib, bog'liqliklarni yaxshiroq baholashga yordam beradi [22].

Tadqiqotlardagi natijalarga ta'sir etuvchi yoki adashtiruvchi omillarni nazorat qilish juda ham muhimdir. Chekish, dieta, jismoniy faoliyat, tana massasi indeksi kabi omillar ham insult xavfiga ta'sir etadi va albatta ularni hisobga olish kerak [14].

Xulosa.

1. Shunday qilib alkogol mahsulotlarini istemol qilish va insult xavfi o'rtasidagi bog'liqlik dalillari ancha ziddiyatli bo'lib, bu juda ko'plab omillarga bog'liq. Ko`p miqdorda spirtli ichimliklar iste'mol qilish ishemik va gemorragik insult xavfini oshiradi. Oz yoki o'rtacha miqdorda alkogol iste'moli, ayniqsa, vino iste'moli ishemik insult xavfini kamaytirishi mumkin, ammo bu xulosa adashtiruvchi omillar ta'siri ostida bo'lishi mumkin.

2. Kelajakdagi tadqiqotlar alkogol iste'molining turli darajalari va turlarining insult xavfiga ta'sirini yanada aniqlashtirish uchun metodologik jihatdan mukammal bo'lishi kerak. Shundagina jamoat salomatligi uchun samarali tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Beghi, E., Bogliun, G., Cosso, P., Fiorelli, G., Lorini, C., Mandelli, M., & Bellini, A. (1995). Stroke and alcohol intake in a hospital population: a case-control study. Stroke, 26(9), 1691-1696.
2. Caicoya, M., Rodriguez, T., Corrales, C., Cuello, R., & Lasheras, C. (1999). Alcohol and stroke: a community case-control study in Asturias, Spain. Journal of clinical epidemiology, 52(7), 677-684.
3. Donahue, R. P., Abbott, R. D., Reed, D. M., & Yano, K. (1986). Alcohol and hemorrhagic stroke: the Honolulu Heart Program. Jama, 255(17), 2311-2314.
4. Frankel, E. N., German, J. B., Kinsella, J. E., Parks, E., & Kanner, J. (1993). Inhibition of oxidation of human low-density lipoprotein by phenolic substances in red wine. The Lancet, 341(8843), 454-457.
5. Gorelick, P. B. (1989). The status of alcohol as a risk factor for stroke. Stroke, 20(12), 1607-1610.
6. Hillbom, M., & Kaste, M. (1982). Alcohol intoxication: A risk factor for primary sub arachnoid hemorrhage. Neurology, 32(7), 706-706.
7. Iijima, K., Yoshizumi, M., Hashimoto, M., Akishita, M., Kozaki, K., Ako, J., ... & Ouchi, Y. (2002). Red wine polyphenols inhibit vascular smooth muscle cell migration through two distinct signaling pathways. Circulation, 105(20), 2404-2410.

8. Jousilahti, P., Rastenyte, D., & Tuomilehto, J. (2000). Serum gamma-glutamyl transferase, self-reported alcohol drinking, and the risk of stroke. Stroke, 31(8), 1851-1855.
9. Kilichev, I. A., Matyokubov, M. O., Adambaev, Z. I., Khudayberganov, N. Y., & Mirzaeva, N. S. (2023). Register of stroke in the desert-steppe zones of Uzbekistan. In BIO Web of Conferences (Vol. 65, p. 04002). EDP Sciences.
10. Kilichev, I. A., Matyokubov, M. O., Khudayberganov, N. Y., & Adambaev, Z. I. (2013). BRAIN STROKES IN ECOLOGICALLY UNFAVORABLE AREAS OF THE ARAL SEA REGION. Schizophr. Bull, 3, 413-430.
11. Klatsky, A. L. (1999). Is it the drink or the drinker? Circumstantial evidence only raises a probability. The American journal of clinical nutrition, 69(1), 2-3.
12. Midanik, L. (1983). Familial alcoholism and problem drinking in a national drinking practices survey. Addictive behaviors, 8(2), 133-141.
13. Mukamal, K. J., Ascherio, A., Mittleman, M. A., Conigrave, K. M., Camargo Jr, C. A., Kawachi, I., ... & Rimm, E. B. (2005). Alcohol and risk for ischemic stroke in men: the role of drinking patterns and usual beverage. Annals of internal medicine, 142(1), 11-19.
14. Mukamal, K. J., Conigrave, K. M., Mittleman, M. A., Camargo Jr, C. A., Stampfer, M. J., Willett, W. C., & Rimm, E. B. (2003). Roles of drinking pattern and type of alcohol consumed in coronary heart disease in men. New England Journal of Medicine, 348(2), 109-118.
15. Mukherjee D., Patil C. G. Epidemiology and the global burden of stroke //World neurosurgery. – 2011. – Т. 76. – №. 6. – С. S85-S90.
16. Nigdikar, S. V., Williams, N. R., Griffin, B. A., & Howard, A. N. (1998). Consumption of red wine polyphenols reduces the susceptibility of low-density lipoproteins to oxidation in vivo. The American journal of clinical nutrition, 68(2), 248-255.
17. Otajonovich, M. M., Taxirovich, J. M., & Adilbekovich, B. U. (2025). RISK FACTORS FOR CEREBRAL STROKE. ZA'MONAVIY TA'LIM ISLOHOTLARI VA ULARNING AMALIY YECHIMLARI: KONFERENSIYA MATERIALLARI, 1(4), 75-83.
18. Renaud, S. D., & de Lorgeril, M. (1992). Wine, alcohol, platelets, and the French paradox for coronary heart disease. The Lancet, 339(8808), 1523-1526.
19. Reynolds, K., Lewis, B., Nolen, J. D. L., Kinney, G. L., Sathya, B., & He, J. (2003). Alcohol consumption and risk of stroke: a meta-analysis. Jama, 289(5), 579-588.
20. Sacco, R. L., Elkind, M., Boden-Albala, B., Lin, I. F., Kargman, D. E., Hauser, W. A., ... & Paik, M. C. (1999). The protective effect of moderate alcohol consumption on ischemic stroke. Jama, 281(1), 53-60.
21. Simpura, J. (1991). Studying norms and contexts of drinking. Contemp. Drug Probs., 18, 477.

22. Stampfer, M. J., Colditz, G. A., Willett, W. C., Speizer, F. E., & Hennekens, C. H. (1988). A prospective study of moderate alcohol consumption and the risk of coronary disease and stroke in women. New England Journal of Medicine, 319(5), 267-273.
23. Stranges, S., Wu, T., Dorn, J. M., Freudenheim, J. L., Muti, P., Farinaro, E., ... & Trevisan, M. (2004). Relationship of alcohol drinking pattern to risk of hypertension: a population-based study. Hypertension, 44(6), 813-819.
24. Strong, K., Mathers, C., & Bonita, R. (2007). Preventing stroke: saving lives around the world. The Lancet Neurology, 6(2), 182-187.
25. Taxirovich, J. M., Otajonovich, M. M., & Adilbekovich, B. U. (2025). SMOKING OF TOBACCO PRODUCTS AND STROKE RISK (A LITERATURE REVIEW). *ZA'MONAVIY TA'LIM ISLOHOTLARI VA ULARNING AMALIY YECHIMLARI: KONFERENSIYA MATERIALLARI*, *1*(4), 61-65.
26. Tjønneland, A., Grønbæk, M., Stripp, C., & Overvad, K. (1999). Wine intake and diet in a random sample of 48763 Danish men and women. The American journal of clinical nutrition, 69(1), 49-54.
27. Truelsen, T., Grønbæk, M., Schnohr, P., & Boysen, G. (1998). Intake of beer, wine, and spirits and risk of stroke: the Copenhagen city heart study. Stroke, 29(12), 2467-2472.
28. Киличев, И. А., Адамбаев, З. И., & Матёкубов, М. О. (2022). ДИНАМИКА НЕКОТОРЫХ ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИНСУЛЬТА В ПУСТЫННО-СТЕПНЫХ ЗОНАХ УЗБЕКИСТАНА ЗА ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ РЕСПУБЛИКИ. *Медицинские новости*, (1 (328)), 76-78.
29. Киличев, И. А., Матмуродов, Р. Ж., & Мирзаева, Н. С. (2020). FEATURES OF NEUROLOGICAL AND NEUROPSYCHOLOGICAL DISORDERS AFTER A LIGHT TRAUMATIC BRAIN INJURY. *Новый день в медицине*, (2), 137-141.
30. Худайберганов, Н. Ю., Жаббаров, М. Т., & Матёкубов, М. О. (2017). Неврологическая семиотика у больных железодефицитной анемией тяжелой степени. *Национальный журнал неврологии*, *1*(S11), 54-56.